



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 18-fevral, seshanba,
20 (24.046)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ayirilgan
yo'lda qolar,
bo'lingan -
do'lda

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



KO'P TARMOQLI KLINIKA SHIRIN shaharchasida quriladi

Yaqinda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida rejalashtirilayotgan ishlar yuzasidan aholiga murojaat qilgan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A. Boboyev Samarqand shahrida xalqaro tajriba asosida 800 o'rinli ko'p tarmoqli zamonaviy klinika qurilishi haqida aytgandi.

Viloyat hokimligida mazkur masala yuzasidan Yaponiyaning "Sojitz" va Turkiyaning "Ro'nesans International" kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A. Boboyev bugungi kunda Samarqand shahrida bir nechta yirik davlat va xususiy tibbiy markazlar mavjud bo'lsa-da, ular asosan ma'lum bir ixtisoslikdagi klinikalar ekanligi, shu sababli ilg'or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilgan holda bugungi kun talablariga javob

beradigan ko'p tarmoqli tibbiy muassasa ehtiyoj borligini ta'kidladi.

Uchrashuvda Samarqand shahrining yangi - Shirin shaharchasida qurish rejalashtirilayotgan 800 o'rinli ko'p tarmoqli tibbiyot markazi loyihasi taqdim etildi. Umumiy qiymati 300 million AQSh dollarini tashkil etadigan shifoxona infratuzilmasi, tashkil etiladigan bo'limlar va keltiriladigan tibbiy jihozlar yuzasidan fikr almashildi. Mazkur markaz negizida keyinchalik tibbiy kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

- O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish jarayonida xorijiy investorlar va xususiy sektor vakillari uchun keng imkoniyat hamda qulayliklar yaratilgan, - deydi Turkiyaning "Ro'nesans International" kompaniyasi vakili Jem O'zdog'uz. - Ana shu jihatlarni inobatga olib biz Yaponiya korporatsiyasi bilan birgalikda Samarqandda zamonaviy klinika qurishni maqsad qildik. Bu taklifimiz viloyat hokimligi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani bizga katta madad bo'ladi. Shifoxona davlat-xususiy sherikligi asosida tashkil etiladi. Shuningdek, biz klinikani boshqarish va yuqori malakali tibbiyot xodimlari tayyorlashda ham ishtirok etamiz.

Tomonlar taqdim etilgan loyihani mutaxassislar ishtirokida atroflicha muhokama qilishga kelishib oldilar.

O'zbekiston-Quvayt: HAMKORLIKNING YANGI QIRRALARI

O'zbekiston va Quvayt o'rtasida shu paytgacha yirik loyihalar amalga oshirilmagan bo'lsa-da, ishga solinmagan imkoniyatlar talaygina. Quvayt hududi jihatidan kichik davlat bo'lsa-da, bu davlatda neft va gaz olishdan tashqari, kimyo, metall, kemasozlik, oziq-ovqat, qurilish sanoati, elektr energiyasi ishlab chiqarish, sun'iy intellekt sohalar yaxshi rivojlangan. Bu mitti davlatda zamonaviy texnologiyalar yordamida dengiz suvini chuchitib bera oladigan texnologiyalar mavjud. Shuningdek, dunyoning eng qudratli milliy valyutasi va 2,3 million aholiga ega Quvayt boshqa davlatlardan oziq-ovqat import qiladi. Jumladan, 2024-yildagi kelishuvga asosan O'zbekistondan quritilgan mevalar importini ko'paytirish tarafdori.



Ikki davlat o'rtasidagi iliq munosabatlarni tufayli sayyohlar soni ham yil sayin ortib bormoqda. Masalan, 2022-yilda O'zbekistondan Quvaytga 14,3 ming sayyoh borgan bo'lsa, 2024-yilda 20 mingdan ortiq turist hordiq chiqarish uchun ushbu davlatni tanlagan.

Shuningdek, 2021-yilda Quvaytdan Toshkent va Namangan shaharlariga ilk bor aviaparvozlarni yo'lga qo'yilgan. Qu-

vaytning ikkinchi milliy aviakompaniyasi va arzon narxlarda havo sayohatlariga ixtisoslashgan "Jazeera Airways" aviakompaniyasi 2023-yil 1-martdan Al-Quvayt va Samarqand shaharlarini to'g'ridan-to'g'ri reyslar bilan bog'lagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 17-18-fevral kuni ushbu davlatga rasmiy tashrifi o'zaro hamkorlik aloqalarida yangi imkoniyatlar ochishi ta'kidlanmoqda.

Prezident topshirig'iga ko'ra



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TIZIMI JORIY ETILADI

Viloyatimizdagi 846 mahallada istiqomat qilayotgan 631,4 mingdan ortiq tomorqachi tasarrufida 69,6 ming gektar tomorqa maydoni bor. Ushbu tomorqa yerlaridan samarali foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va aholining daromadini oshirish, viloyatdagi 4,2 milliondan ortiq aholining asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 30-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tomorqada va ijaraga berilgan yerlarda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yetishtirishning yangi tizimi bo'yicha topshiriqlar bergan. Shundan kelib chiqib, viloyatimizdagi tomorqachilar daromadini oshirish va bandligini ta'minlash yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi.

Jumladan, har bir sotix yerdan 15-20 million so'm daromad olishga erishish, yerdan 2-3 marta hosil olish, mahallalarda kamida 10 tadan xonadonning daromadini 60-70 million so'mga yetkazib, ularni namunali xonadonga aylantirish choralari ko'riladi. Viloyatdagi 69,6 ming gektar tomorqa yerlariga almashlab ekishni tashkil etish orqali 184,9 ming gektar maydonda (66,5 ming gektar ertaki, 61,8 ming gektar takroriy, 56,6 ming gektar to'qsonbosti) ekin ekilishi rejalashtirildi. Ushbu maydonlardan joriy yilda 1 million 686 ming tona sabzavot, 413 ming 910 tona kartoshka, 73,9 ming tona poliz, 132 ming tona dukkakli, 4,8 ming tona boshqa mahsulotlar yetishtirish ko'zda tutilgan. Birgina Bularung'ur tumanida 34 ming tona kartoshka yetishtirilib, ichki bozorga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, bahor oylarida 38,2 ming xonadonga qariyb 153 ming tup limon hamda 70,4 ming xonadonga 1 million tupdan ortiq uzum ko'chatlari ekiladi. Buning uchun kengash huzuridagi jamg'arma va tijorat banklari tomonidan tashabbuskorlarga 12 milliard so'm mablag' ajratiladi. Yana bir yaxshi tashabbus sifatida joriy yildan har bir tumanda 5-6 gektardan (jami 90 gektar) tomorqa maydonida organik mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Bunda meva-sabzavot, dukkakli va poliz ekinlari yetishtirish bo'yicha targ'ibot tadbirlari o'tkaziladi. 95 ta tomorqa xizmati

shaklidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yiladi, 85 ta kichik hajmli sovtikich omborxonasi hamda 115 ta kichik hajmli quritish, saralash va qadoqlash uskunalar ishga tushiriladi. Shu orqali 695 nafar aholining bandligi ta'minlanadi.

Shuningdek, "Yashil makon" umum-milliy loyihasi doirasida aholi tomorqalari, ichki yo'larga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekiladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari hamda tomorqa xizmati korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun kengash huzuridagi jamg'armadan 24,2 milliard so'm ajratiladi. YTT "Tomorqa xizmatlari" va dehqon xo'jaliklariga 6,4 million so'mgacha garovsiz kredit, "Sayxunobod" tajribasi asosida 14 ta tumanning 4 tadan mahallasiga minitexnikalar kredit va lizing shartlari asosida yetkazib beriladi.

Hozir viloyatimizda 10 ta tumandagi 4215 gektar tomorqaning suv ta'minoti qoniqsiz. Shuning uchun 44 ta mahallada 61 dona sug'orish qudug'i qaziladi va natijada 183 gektar tomorqaning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Misol uchun, Kattaqo'rg'on tumanidagi Javlon, Tavoron, Payariq tumanidagi Alisher Navoiy, Guliston, Urgut tumanidagi Ko'tarma, Ispanza, Qo'shrabot tumanidagi Mustaqillik, Xonnazar, Namuna mahallalarida suv ta'minotini yaxshilash uchun artezian quduqlar qaziladi.

Yangicha yondashuv asosida tashkil etiladigan 7 ta namunali o'quv-tajriba maydonida 1652 nafar tomorqachining bilimlari oshiriladi, usta dehqonlar ishtirokida mahorat darslari va seminarlar tashkil etiladi. Asosiy, muayyan turdagi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan mahallalar soni 583 tadan 688 taga yetkaziladi.

Munosabat



Prezidentimizning maktab bitiruvchisi bir hunar egasi bo'lsa va ikki tilni bilsa, men xursand bo'laman, degan so'zlaridan ilhomlanib, ustozlarimiz ko'magi bilan o'quvchilik davrimdayoq novvoylik hunarini va ingliz tilini o'rganishga ahd qildim.

Yangi imkoniyatlar eshiklari ochildi

O'tgan yil novvoylik yo'nalishida "Kasblar tanlovi"ning respublika bosqichida 1-o'rinni egallab, 50 million so'm pul mukofotiga ega bo'ldim. Shuningdek, "Worldskills" xalqaro tanlovida O'zbekiston nomidan ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdim.

14-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvida viloyatimizdagi studiya orqali qatnashdim va biz yoshlar uchun yaratiladigan imkoniyatlar haqida eshitib, xursand bo'ldim.

Endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar berilishi, qaysi fan bo'yicha bo'lishidan qat'i nazar, xalqaro olimpiada g'olibi bo'lgan yoshga bir milliard so'm atrofida pul mukofoti ajratilishi ta'kidlandi. Bu albatta, biz yoshlarning yanada ko'proq izlanishimizga, xalqaro tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'lishga intilishimizga turtki bo'ladi.

Sabrina NURILLAYEVA,
Past Darg'om tumani.

IJTIMOY SOHADA YANGILIKLAR KO'P

ENG KATTA O'ZGARISH TIBBIY SOHADA BO'LADI

Yurtimizda yildan-yilga ijobiy o'zgarishlar ko'paymoqda. Bu birinchi navbatda, davlatimiz iqtisodiy salohiyati oshib borayotganining amaliy ifodasidir. Qolaversa, inson qadri ulug'langan yurtida davlat siyosati ayni shaklda olib borilishi tabiiy.



Albatta, yangilanishlar boshqa hududlarda bo'lgani singari viloyatimizda bo'y ko'rsatib, odamlar turmush tarzida aks etmoqda. Bu borada joriy yilda ham boshqa jabhalar qatori ijtimoiy sohada katta ishlar, maqsadlar belgilab olingan.

Xususan, viloyatda yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilib, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrov darajasi 75,6 foizga yetkaziladi. Maktablarda 19,5 mingta qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratiladi, nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni 48 taga yetadi.

(Davomi 3-sahifada) >>>



Biz uchun odatga aylangan holatlar javobgarlik keltirib chiqaradi. Ko'pincha huquqimiz bo'la turib bilmaganimiz tufayli undan foydalanolmaymiz. Shu sabab kundalik hayotimizda dolzarb ahamiyatga ega ayrim qonun hujjatlaridan misollar keltirishni lozim topdik. Gazetamizning ushbu "savol-javob" sahifasi bo'yicha fikr-mulohazalaringiz bo'lsa tahririyat manzillariga yoki @zarafshonbot telegram messenjeri orqali murojaat qilishingiz mumkin.



Talabalik davri mehnat stajiga qo'shilmaydimi?

— O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport institutiga kunduzgi shakliga o'qishga kirib, 2023-yilda uni bitirdim. 3-bosqich talabaligimda, ya'ni 2022-yilda maktabga ishga kirganman. 2024-yilning avgust oyida maktabdan ishdan bo'shadim, lekin yangi ishga hujjat topshirganimda mehnat stajim talab qilingan 3 yilga yetmayotganligini aytishdi. Men institutda o'qigan davrimni ish stajiga qo'shimcha qilib ko'rsata olmaymanmi?



— "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 37-moddasida ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlari sanab o'tilgan. Mazkur moddaning "e" bandiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida, aspiranturada, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar institutida, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida, tayanch doktoranturada, doktoranturada va klinik ordinaratura kunduzgi o'qish, shu jumladan, chet elda o'qish umumiy ish stajiga 7 yil bo'lgan taqdirda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

Ya'ni, yoshga doir pensiya olish huquqiga (erkaklar uchun — 60, ayollar uchun 55 yosh) qadar kamida 7 yil ish stajiga ega bo'lsangiz, shundagina oliy ta'lim muassasalarida o'qigan davringiz ish stajiga qo'shib hisoblanadi va 4 yillik o'qish davri 7 yillik ish stajiga qo'shib, 11 yillik ish stajiga mavjud deb hisoblanadi.

Demak, sizning oliy ta'lim muassasasida o'qish davringiz faqatgina pensiyaga chiqishda hisobga olinadi, lekin ishga kirish vaqtida so'raladigan mehnat stajida o'qish davri hisoblanmaydi.

Sanjar BO'RIYEV,
Alisher PRIMOV,
viloyat adliya boshqarmasi mutaxassislari.



— Men 2024-yil 16-oktabrda tug'ruq ta'tiliga chiqdim. 19-fevralda dekret ta'tilim muddati tugaydi. Tug'ruq jarayonida jarrohlik amaliyotidan foydalanilganligi uchun ta'tilda o'zimni to'liq tiklay olmadim. Shu bois 14 kunlik mehnatga layoqatsizlik ta'tiliga chiqsam bo'ladimi? Shunda menga mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lanadimi?

— Amaldagi Mehnat kodeksining 404-moddasiga binoan, ayolga tug'ruqqacha 70 kalendar kun hamda tug'ruqdan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi belgilangan.

Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 28-bandiga ko'ra, homiladorlikning 30-haftasidan keyin murojaat

Dekret ta'tilidan keyin mehnatga layoqatsizlik ta'tiliga chiqish mumkinmi?



qilinganda, tug'ishga qadar necha kun qolganidan qat'i nazar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi murojaat qilgan kundan to'liq 126 kalendar kuniga beriladi.

Shuningdek, nizomning 27-bandiga ko'ra, tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola

tug'ilgan hollarda homiladorlik va tug'ish ta'tilini uzaytirish uchun tug'ruq muassasasi tomonidan yana 14 kalendar kuniga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Shunday ekan, sizga ham mehnatga layoqatsizlik varaqasi to'liq 140 kungacha berilishi kerak. Bunda homiladorlik va tug'ish bo'yicha hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga beriladigan nafaqalar xodim:

- ishga qabul qilingan kundan 12 oygacha ish stajiga ega bo'lganda — o'rtacha oylik ish haqining 75 foizi;

- ishga qabul qilingan kundan 12 oydan ortiq ish stajiga ega bo'lganda — o'rtacha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida to'lanadi.

Akmal JOVLIYEV,
viloyat adliya boshqarmasi shu'ba boshlig'i.

Bog'cha xodimlari va tarbiyalanuvchilarning elektron davomati yuritiladi

Maktabgacha ta'lim tizimi raqamlashtiriladi, deb eshitdim. Bu nima degani? Shu haqda ma'lumot bersangiz.

D.O'rinova,
Qo'shrabot tumani.



— Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Unga ko'ra davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari raqamlashtiriladi, ya'ni "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi orqali barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari va tarbiyalanuvchilarning elektron davomati yuritiladi. Shuningdek, xodimlar ish haqi, oziq-ovqat xarajatlari, bola ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi va boshqa to'lovlar avtomatlashtirilgan tarzda hisoblanadi.

Bunday tartib 2025-yilning 1-fevralidan tajriba-sinov tariqasida Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. 2025-yilning 1-iyulidan respublikamizdagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanadi.

Savolga viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mas'ul xodimi Furqat JIYANOV javob berdi.

Onalik nafaqasi qanday hisoblanadi?

— Onalik nafaqasini hisoblash tartibi qanday? Bunda ish joyidan berilgan mukofot pullari ham hisobga olinadimi?

— O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 404-moddasiga ko'ra, ayollarga tug'ruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug'ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili beriladi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug'ruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat'i nazar, to'liq berilishi belgilangan.

Nafaqani hisoblash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-qarori bilan tasdiqlangan "Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga nafaqani tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra amalga oshiriladi. Bunga fuqaroga berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi.

Nizomning 35-bandiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish bo'yicha hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga beriladigan nafaqalar xodim:

- ishga qabul qilingan kundan 12 oygacha ish stajiga ega bo'lganda, o'rtacha oylik ish haqining 75 foizi;

- ishga qabul qilingan kundan 12 oy ortiq ish stajiga ega bo'lganda, o'rtacha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida to'lanadi.

Nafaqaning umumiy summasi kunlik o'rtacha ish haqini ushbu oyda vaqtinchalik mehnatga



layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga beriladigan ta'til tufayli ishga kelmagan ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Nafaqalar bo'yicha o'rtacha ish haqi Mehnat kodeksining 257-moddasiga ko'ra, o'rtacha ish haqini hisoblab chiqarish uchun xodimga hisoblangan ish haqining tarkibiga soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan, soliq solinishi lozim bo'lgan, ish beruvchi tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlarning barcha turlari kiritiladi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimidagi xodimlarning o'rtacha ish haqi xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladigan oydan oldingi kalendar oy uchun ishbay baholar bo'yicha haqiqatda hisoblangan ish haqidan kelib chiqib, xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladigan oydan oldingi o'rtacha kalendar oy uchun ustamalar, mukofotlar va boshqa to'lovlar (ushbu kodeks 248-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ish haqining qo'shimcha qismi) summasining o'rtacha bir qismi o'rtacha ish haqiga jamlangan holda belgilanadi.

Savolga Payariq tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi rahbari Ikrom ABDURAHMONOV javob berdi.

Chetga ketish chiptasiga kompensatsiya

Yaqinda birinchi marta chet elga ishlash uchun chiqmoqchiman. Tanishlarimning aytishicha, ketish uchun xarid qilgan chiptamga davlat kompensatsiya berarkan. Shu gap to'g'rimi?

— Bu masala davlat rahbarining "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tartibga solinadi.

«Xorijda ish» mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga:

xorijiy tillar va (yoki) kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlari qoplash uchun, basharti ular muvaffaqiyatli topshirilganda va sertifikat olinganda - bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha miqdorida;

xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishga «ishchi viza»ni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlari qoplash uchun - BHMning 5 baravarigacha miqdorida;

yo'l chiptasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari qoplash uchun - BHMning 2 baravarigacha miqdorida kompensatsiya to'lanadi.



Bundan tashqari, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalar, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir ishga olingan bunday xodim uchun 12 oy davomida oyiga 500 ming so'mdan subsidiya to'lanadi. Bunda:

subsidiya 2024-yil 1-iyundan 2026-yil 1-yanvargacha qadar ishga qabul qilingan shaxslarga nisbatan to'lanadi;

mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxs bilan tuzilgan va Yagona milliy mehnat tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan mehnat shartnomasi subsidiya to'lash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Xususiy sektordan dekretga chiqilsa...

— Xususiy korxonada ishlayman. Mening dekret pulim qanday tartibda beriladi?

— Xususiy korxonada ishlayotgan xodimga homiladorlik va tug'ish ta'tili puli "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom talablari asosida to'lanadi. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi nafaqani tayinlash va to'lash uchun asos bo'ladi. Bu hujjat rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida undagi ma'lumotlar hududiy ambulator-poliklinikaning yoki tug'ruqxona muassasasining mas'ul xodimi tomonidan "Tibbiyot" axborot tizimiga kiritiladi va mazkur tizim tomonidan ma'lumotlar "Elektron hukumat" tizimi idoralariaro integratsiyalashuv platformasi orqali olingan ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda tekshiriladi. "Tibbiyot" axborot tizimi tomonidan tekshirilgan ma'lumotlar avtomatik ravishda "Yagona reestr" axborot tizimiga yuboriladi.

Shundan so'ng "Yagona reestr" axborot tizimi tomonidan har o'ning 4-sanasi qadar nafaqa bo'yicha to'lov ro'yxat (vedomost)lari "Xalq banki"ga taqdim etiladi hamda Jamg'armaning g'azna hisobvarag'idan zarur mablag'lar belgilangan tartibda "Xalq banki"ga o'tkazib beriladi. Ko'rsatilgan muddatning oxirgi kuni bayram va dam olish kunlariga to'g'ri kelganda, to'lov



ro'yxat (vedomost)lari va zarur mablag'lar keyingi 2 ish kuni mobaynida "Xalq banki"ning tuman (shahar) bo'limiga taqdim etiladi va moliyalashtirilishi mumkin. Nafaqani to'lash uchun "Xalq banki" va uning bo'limlarida alohida maxsus bank hisob varaqlari ochiladi. Shuningdek, "Yagona reestr" axborot tizimi tomonidan to'lov ro'yxat (vedomost)lari bank plastik kartasi bo'yicha shakllantiriladi. Bunda tegishli banklararo reprotsessing markazlaridan nafaqa oluvchining nomiga ochilgan, aktiv holatda bo'lgan, oxirgi 60 kun davomida oxirgi tranzaksiya amalga oshirilgan bank plastik kartasi tanlab olinishi, nafaqa oluvchining bank plastik kartasi bo'limganda, to'lov naqd pul ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Mirkomil FAYZULLAYEV,
Payariq tumani adliya bo'limi xodimi.

IJTIMOIY SOHADA
YANGILIKLAR KO'PENG KATTA O'ZGARISH
TIBBIY SOHADA BO'LADI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Yangi umumta'lim maktabi qurish, professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qitish, oliy ta'lim muassasalarida yangi o'quv binolari va talabalar turarjoylari barpo etish, tibbiyot muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Bunda hudud hokimlari bilan ishlar tizimli tashkil qilinadi.

Sport infratuzilmasi rivojlanmagan 24 ta mahallada sport maydonchalari barpo etiladi, 3 ta sport zal va 4 ta sport inshooti yangidan quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Joriy yilda nogironligi bo'lgan shaxslarning 8,5 ming nafari bandligi ta'minlanadi, 2,4 ming nafari parasportga jalb qilinadi. 1,8 ming nafari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim bilan qamrab olinadi.

Bu yilni tibbiyotda yangilanishlar yili deb nomlash mumkin. Chunki sohada katta o'zgarish va yangiliklar rejalashtirildi. Misol uchun, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan katta ishlarining uzviy davomi sifatida xalqaro moliya korporatsiyasining 10 million dollar ko'magi bilan respublika onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida nur bilan davolash bo'limi tashkil etiladi.

Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga diagnostika va davolash xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Bu viloyatlararo markazda amalga oshiriladi.

Yil yakunigacha 5 ta oilaviy poliklinika va 11 ta oilaviy shifokorlik punktlari ochiladi. Shuningdek, 1465 nafar oilaviy shifokorlar faoliyatini reyting baholash tizimini joriy etish, 150 qatnovga mo'ljallangan o'smirlar va talabalar poliklinikasi tashkil etiladi.

Skrining yo'nalishida 40 va undan katta yoshdagi aholini yurak qon-tomir va qandli diabet kasalligi bo'yicha, 18-40 yoshdagilar o'rtasida profilaktik ko'riklar orqali salomatliklarini baholash choralarini ko'riladi. Bundan tashqari, 45-65 yoshdagi ayollar o'rtasida ko'krak bezi, 35-55 yoshdagilar uchun bachadon bo'yni saratoni kasalligiga skrining tekshiruvlari o'tkaziladi. Bu yo'nalishda 18 yoshgacha bolalarni chuqurlashtiril-

gan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, 2-10 yoshli o'g'il-qizlarda gelmintozni erta aniqlash, 3-18 yoshlilarni onkogematologik kasalliklarga tekshiruvdan o'tkazish ham ko'zda tutilgan.

Joriy yilda viloyatdagi 16 ta markazda 10 turdagi yangi davolash va diagnostika usullari joriy etiladi. Qolaversa, yo'nalishlar bo'yicha 120 nafar shifokorni chet el klinikalarida o'qitish, 100 o'rinni bolalar tibbiy rehabilitatsiya bo'limi tashkil etish, bolalarda buyrak va koxlear, suyak iligi transplantatsiyasi amaliyotlarini joriy qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilyapti.

Shuningdek, jigar va bachadon xavfli o'smalarida intervension radiologik jarrohlik amaliyotlari viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida ekstrakorporal urug'lanish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Yil davomida 21 ta tug'ruq muassasasi 23 turdagi (652 dona) asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, to'rtta tuman markaziy shifoxonasida xususiy tadbirkorlar hamkorligida 13,5 milliard so'mlik davlat-xususiy sheriklik yoki outsorsing asosidagi zamonaviy diagnostika markazlarini tashkil etish maqsad qilingan. Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida "Insultologiya" markazi ochiladi.

Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida 262 ta sanitarিয়া-gigiyena shoxobchalarini ta'mirlash, 5 ta birlamchi tibbiyot muassasalarida homiylik mablag'lari hisobidan qurilish ishlarini olib borish hamda 50 ta tez tibbiy yordam avtotransport vositalarini yangilash ko'zda tutilgan.

Husan TO'XTAYEV,
viloyat hokimi o'rinbosari.

Bitta qiz farzandni o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz. Bu hikmatni ota-bobolarimiz bejiz aytmagan. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan xotin-qizlarning ta'lim olishi, ilmiy ishlar bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoit yaratib berilishi o'z natijasini bermoqda. Xotin-qizlarning fanda teng huquqli asosida ishtirok etishi ilmiy tadqiqotlar turfaigini ta'minlash, noyob iste'dodga ega bo'lganlar doirasini kengaytirish, ilmda yanada yuqoriroq yutuqlar qo'lga kiritilishida nihoyatda muhim rol o'ynaydi.

Imsiz bir yashar, ilmi ming yashar

BMT Bosh assambleyasining 2015-yil 25-dekabrda 70-sessiyasida 11-fevral "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" deb e'lon qilingan. 2016-yildan boshlab mazkur sana dunyoning ko'plab davlatlarida, shu jumladan, mamlakatimizda ham keng nishonlanib kelinmoqda.

Bu kuni nishonlashdan maqsad - ayollarning ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi kasblarga qiziqishini oshirish, gender tengligini rag'batlantirish va ayollarga teng imkoniyatlar yaratish hamda olimalarning ilm-fan sohasidagi yutuqlarini tan olish va ularni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

O'zbekistonda ayollarning ilm-fan sohasidagi faoliyati tobora kengayib bormoqda. Misol uchun, Samarqand davlat chet tillar institutida 531 nafar o'qituvchilarning 346 nafari xotin-qizlar bo'lib, ulardan 16 nafari profes-

sor, 20 nafari fan doktori, 64 nafari fan nomzodlari, PhD darajasiga ega bo'lgan ayollar va 86 nafar doktorant xotin-qizlardir.

Jumladan, navoiyshunos olimi Dilorom Salohiy, Iroda Pardayevalarning mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ilmiy adabiy merosini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishdagi xizmatlari beqiyos. Zulfiya adabiy merosini keng tadqiq etayotgan, bugungi kunda o'nlab yosh tadqiqotchilarga ustozlik qilayotgan professor Go'zal Umurovaning faoliyati ham tahsinga sazovor. Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida faoliyat olib borayotgan yosh fan doktorlarimizdan Maftuna Xolova ayollar adabiyoti va adabiyotshunosligiga doir tadqiqotlari, ilmiy maqola, monografiya va darsliklari bilan e'tiborga tushgan. Jadid adabiyotining va uning yoshlar

hayotidagi o'rnini bugungi mezonlar asosida tadqiq etayotgan tadqiqotchi olimi Dilafroz Rahmatova, shuningdek, fransuz tili o'qituvchilaridan Dilfuza Ataulayeva Fransiya hukumati tomonidan Fransiya-O'zbekiston hamkorligini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun "Akademik Palma" ordeni bilan taqdirlanganligi o'zbek olimlariga berilgan yuksak bahodir.

Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni nafaqat ayollarning yutuqlarini nishonlash, balki gender tengligi masalasini hal qilish uchun ham muhim vositadir. Ayollarning ilm-fan va texnologiyalar sohasida ishtirokini oshirish orqali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish mumkin.

Habiba JABBOROVA,
SamDChTI katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Foydalanilmagan mehnat
ta'tili uchun to'lov undirsa bo'ladi

Huquqiy targ'ibot



Kattaqo'rg'on tumani Yangiqo'rg'on mahallasida yashovchi fuqaro A.Mahkamov bunga o'z taqdiri misolida guvoh bo'ldi

A.Mahkamov Kattaqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi tizimida (Zarafshon hamda Yangiqo'rg'on qishloq vrachlik punktlarida vrach stomatolog vazifasida) 1993-yildan 2017-yilga qadar ishlagan. 2017-yilda mehnat shartnomasi bekor qilingan, biroq oxirgi hisob-kitob amalga oshirilmagan.

U foydalanilmagan mehnat ta'tillari uchun kompensatsiya undirishda amaliy yordam berilishini so'rab tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaatni o'rganish davomida tuman adliya bo'limi Kat-

taqo'rg'on tumanlararo fuqarolik sudiga da'vo arizasi kiritdi. Arizada javobgar - tuman tibbiyot birlashmasiga nisbatan fuqaro A.Mahkamovga 1993-2017-yillarda ishlagan barcha davrlarda foydalanilmagan mehnat ta'tillari uchun kompensatsiya to'lovlarini undirish haqida hal qiluv qarorini qabul qilishi so'ralgan.

Sud tomonidan da'vo ariza qanoatlantirilib, tegishli hal qiluv qarori bilan javobgardan fuqaro A.Mahkamov foydasiga 75 million 975855 so'm miqdorida kompensatsiya to'lovlari undirib berilishi ta'minlandi.

Orif MUHAMMADIYEV,
viloyat adliya boshqarmasi
bo'lim boshlig'i.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Umrillo LUTFULLAYEV

Samarqand tibbiyoti og'ir judolikka uchradi. Beshafqat o'lim hayotining 60 yilini xalq salomatligini mustahkamlashga bag'ishlagan Samarqand davlat tibbiyot universiteti professori, tibbiyot fanlari doktori, Nyu-York tibbiyot akademiyasining haqiqiy a'zosi Umrillo Lutfullayevni oramizdan olib ketdi.



Umrillo Lutfullayev 1943-yilning 6-iyulida Urgut tumanida tug'ildi. O'rta maktabni tugatgach, Samarqand davlat tibbiyot institutida (hozirgi Samarqand davlat tibbiyot universiteti) o'qidi. 1967-yilda oliygohni tamomlab, Urgut tumani markaziy shifoxonasida ish boshladi. Keyinchalik qator yillar Urgut shahar sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i, Urgut tumani markaziy shifoxonasi bosh shifokori vazifalarini bajardi. 1989-2013-yillarda esa Samarqand davlat tibbiyot institutida assistent, dotsent, professor, otorinologiya kafedrasida mudiri vazifalarida mehnat qildi.

Ustoz 2013-yildan boshlab institutning diplomdan keyingi ta'lim fakulteti otorinologiya kafedrasida professori sifatida ishlab kelayotgan edi. U. Lutfullayev 1978-yilda tibbiyot fanlari nomzodi, 1988-yilda fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U viloyatda otorinologiya xizmatini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. U. Lutfullayev universitetda, hamkasblari, shogirdlari orasida hurmatga sazovor edi. To'g'riso'zligi, madaniyatli va kamtarligi bilan ajralib turardi. U mas'uliyatli va jonkuyar rahbar, malakali shifokor, 4 nafar farzandning otasi va o'nlab nabilarining mehribon bobosi edi. Tajribali shifokor, tashkilotchi rahbar Umrillo Lutfullayevning yorqin xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI MA'MURIYATI VA KASABA UYUSHMA QO'MITASI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Buxarov Saitmurod Safarovichga (2023-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rashidova Gulnora Asatulloevnaga (2024-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Kasimov Ubaydullaga (2023-yil 5-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 41/100-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Ashurova Masturaga (2022-yil 5-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan me-

rosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Zaidova Kunduzxon Turgunovnaga (2024-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfidinovich notarial idorasida marhum Xusainov Xusain Raufovichga (2024-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Fayziyeva Dilrabo Rijamuratovnaga (2023-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Burxonov Umarga (2019-yil 5-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ulfanova Diana Vladimirovnaga (2020-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ismailov Matyakub Ibragimovichga (2024-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

TOPGANGA MUKOFOT
Fuqaro Rasulova Zamira Raximovna nomiga 2018-yil 14-noyabrda berilgan AF 0227018 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-547-65-43.



Ogohlilik



BOBUR VA SHAYBONIY

BOBOLARIMIZDIR

Bobur kim? Mening bobom. Shayboniy kim? U ham mening bobom. Nega boboni boboga qarshi qo'yyapmiz? Bu ishimiz borib-borib, elni yana ikkiga bo'lib yuboradi-ku!..

Xo'p, Shayboniyxon bilan birga "o'zbek" degan nom yurtimizda uzil-kesil qaror topdi, deylik. Lekin biz faqat nomdan iborat emasimiz-ku! Ungacha turk degan nom ostida bor edik-ku!

O'zbek ham o'sha turkning, turkiyning bir qismi, bir urug'i bo'lib qo'shildi! Nega parchani olib, butunga qarshi qo'yyapmiz?

O'zaro urushlarda Shayboniyxonning (keyinroq avlodining) qo'li baland keldi va Turkistonda katta ishlar qildi: davlat tuzdi, yangi davlat barpo qildi. Xo'sh, Bobur yengib chiqqanda, u bunday ishlarni qilmasmidi? Albatta, qildirdi. Aytaylik, yetti mo'jizadan biri – Toj mahal Andijon yoki Samarqandda qad rostlardir. Lekin nega biz ularning birini boshqasidan ustun ko'rmoqchi bo'lib, so'z so'zlayapmiz?

Kechagi, sovet davridagi siyosatning davomi emasmi bu? Faqat farqi shuki, kecha Bobur ulug'lanib, Shayboniy yerga urilgan edi. Bugun esa teskarisi yuz beryapti. Nega? Axir xato bitta-ku!..

Yana bitta farq shuki, kecha dushman atayin "xato" (bu ko'zlangan reja edi) qilgan bo'lsa, bugun o'zimiz shu ishning boshida turibmiz. Yana oramizda el tanigan, el suyg'an ziyolilar ham borligi kishini jiddiy o'yatib qo'yadi. Axir ziyoli degani elni birlashtiradigan g'oyalarni o'rta tashlamaydimi?!.. Buzg'unchilik kimga kerak, nega kerak? Agar ziyoli buzg'unchi bo'lsa, elning parokanda bo'lgani shu emasmi?!

Bilmaymizki, tomirdagi qonimizda qaysi bobomizning qoni ko'proq oqayotgan ekan?

U yug'ini surishtirsangiz, Shayboniyxon qurgan davlatchilikda temuriylarning ham hissasi bor edi. Axir uning o'zi temuriylar davlatida yollanma qo'shin boshi, arbob bo'lib yetishdi, kuchga to'ldi. Yana surishtirsangiz, Shayboniy qonida temuriylarning qoni (Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegim tomonidan) borligiga guvoh bo'lasiz. Buni men emas, tarixchilarimiz yozaypti. Yoki yolg'on yozayptimi? Bunday deb o'ylamayman. Hatto yolg'on bo'lganda ham biz Odam Ato va Momo Havoning farzandlari emasmidik! Nega ota talashyapmiz, bobo talashyapmiz?

Shayboniy o'zbek, ayni paytda turkdir, turkiydir.

Bobur ham o'zini "turk" deydi, xuddi



Ulug'bek HAMDAM.



Voqea ancha yillar oldin bo'lgandi. O'shanda oyog'im lat yeb, tuman shifoxonasiga murojaat qildim. Do'xtir shikastlangan oyog'imni tortib, ozor bergach, og'riqqa chiday olmasdan dodlab yubordim.

"Tilingiz shirinmi?"

- Nega ho'kizdek baqirasiz? – dedi do'xtir. Uning sovuq muomalasidan muzlab qoldim. Shifoxonada boshqa xodimlar ham qo'pol muomalada bo'lishdi. Dilim og'ridi. Biroz kasalxonada yotib, uyga qaytdim. Lekin oyog'imning og'rig'i to'xtamadi. Meni ko'rgan kelgan tanishlarimdan biri tabib ayolni tavsiya qildi. - Oyog'ingiz sinmagan, biroz qayrilibdi, - dedi tabib ayol oyog'imni ko'rgach. - Keyin biroz uqalab, malham surtib

Qush uyasida ko'rganini qiladi

Nega biz bu naqlimizga qarshi ishlaymiz?

Ochig'i, ushbu maqolani yozishimga yaqinda ko'rganim – bir voqea sabab bo'ldi. Bekatda turgan edim. Uning yonidagi do'kondan rang-barang yelim xaltachalar ko'tarib chiqayotgan kishilarga ko'zim tushdi. Xaltachalarda esa ichimliklarning ko'zni yashnatadigan suratlari chizilgan. Ayrimlari hashamdor, tag'in turfa shakldagi ko'rinishi bejirim shishalarni ko'z-ko'z qilib, qo'lida ushlab chiqyapti. Go'yo ularning salohiyati ana shu do'kondan eng qimmat spirtli ichimlik olib chiqqani bilan belgilanadi. Mashinada esa uni oila a'zolari kutib turibdi. Ayrimlari rolda shu qadar kibr bilan o'tirishadiki, yoqangni ushlaysan.

Shu o'rinda ikkinchi bir voqeani ham eslatib o'tay. Bugungi kunda restoranlarda yosh yigit-qizlarning xizmat qilib pul topayotganligi sir emas. Mayli, bu mehnat, pul topishning yo'li. Ammo...

Restoranda xizmat qilgan yigitlarning biri bilan suhbatlashyapman.

- Bolam, hozir aroqning zo'ri qaysi?
- "Tashvino"nikida, aka.
- Qaysi birini ko'proq so'rashyapti?
- Hamma yangi chiqqanidan so'raydi.
- Nega? - so'rayman undan.

U esa "chunki uch o'ying ichida yasa-masi chiqadi-da", deydi tortinmay. "Aroq ko'p ichilyapmiz to'yalarda?", so'rayman yana. "Unchalik ko'p emas-u, lekin eng zo'r aroqlarni ochib tashlashadi-da. Hozir viski ichish moda bo'lgan. Ayollar ham shuni talab qilishadi", dedi u.

Endi tasavvur qiling. O'z viloyatida o'lkashunoslik yoki boshqa tarixiy muzeylar, ulug' obidalar qayerdaligini bilmagan, hatto u yerlarga qadam bosmagan o'spirin nimadan ibrat olyapti? U uyasida nimani ko'ryapti? O'sha ochib tashlangan, nomi chiqqan ichimliklardan havas uchun fatib ko'rmasligiga kafolat bera olasizmi?! Meni qiynayotgan ana shu savoldir.

Butun dunyoda ichkilikbozlikka, tamaki chekishga qarshi kurash ketayotgan bir paytda spirtli ichimliklar do'konlarini kecha-yu kunduz ochib qo'yishimiz, u yerdan istagan kishining mahsulot olishiga

imkon berishimiz, restoranlarda farzandlarimizning nigohini qimmatbaho alkogol bilan ochishimiz biz, kattalar uchun gunoh emasmi?!

Yana bir holat xotirimga keldi. Mehmondorchilikda bir tanishim oila a'zolari va kelgan mehmonlar huzurida maktabda o'qiydigan o'g'lga "bolam, shkafidagi Shvetsariyadan kelgan viskini olib kel", dedi. Bola obkeldi. Keyin otasi uyida ichimliklardan to'plagan bisotini nomma nom maqtab ketdi. Hatto unga "hoy, birodar, yoshi ulug' mehmonlar, bolalar oldida ichimlikni maqtagandan ko'ra, uyda qancha kitobingiz borligini ayting", deydishdan tiyidim. Chunki unga bu gapim ta'sir qilmasdi, aytсам, xafa bo'lishi ham tayin edi. Endi o'zingiz o'ylang, bola uyida nimani ko'ryapti?

Avallari mahallada birorta ichadigan bo'lsa, uning basharasiga qarab bilardik. U ham o'zini odamlardan chetga olib yurardi. Bugungi ichuvchilarda hayo qolmadi. Qimmatbaho kostyum-shim, bo'yinbog'lar-da do'kondan hammaning ko'z o'ngida qimmatbaho ichimlikni



olib ketishadi. Shunaqa toifa ichkilchilar ham ko'paygan. Ichkilikni uydagilardan, ayniqsa, ota-onadan yashirib, bir amallab ichardik. Bugun esa ota-bola bir dasturxonada "qani, oldik" deyapti. Qush uyasida nimani ko'ryapti? Nahotki biz ichkilik-bozlikni uning idishlarida, xaltachalarida "san'at"ga aylantirmoqchi bo'lyapmiz. Kelgusida ularning nomi "shirin", "layli", "oromijonim", "do'stim", "qadrdonim", "sevgilim" deb atalmasligiga kafolat bera olasizmi? Shu o'rinda ko'nglimdagi bir gapni aytib o'tsam. Albatta, zamonaviy iqtisodiyotda "brend" degan narsa juda kerak. U mamlakatni, ishlab chiqaruvchini elga tanitadi, bozorini chaqqon qiladi. Lekin kamina 80 yosh atrofiga ham xorijiy davlatlarga oid "brend"larda davlat ko'rmaganman. Biz esa "O'zbekiston", "Samarqand", "Registon", "Qo'qon" kabi buyuk nomlarni qo'yayapmiz.

Buning o'rniga ichkilik tu-fayli obro'si to'kilgan, ko'ngil-sizlikka uchragan, odamlar haqidagi voqealarni, ularning statistikasini berib borsak, bolalarimizga ibrat bo'lmaydimi? O'shanda ular ichkilik har bir balo-yu ofatning sababchisi ekanligini ravshan bilib oladilar.

Sarlavhadagi naqni deyarli har kun takrorlaymiz. Lekin unga rioya qilmaymiz: mehmon kutsak, dasturxonaga nandan avval ichimlik qo'yamiz, spirtli ichimliklar do'konlari peshtaxtasi jimjimador, shirakayf odamga iddao qilishni bilmaymiz, davralarda ichmaydigan odamga ham majburlash odatimiz bor va hokazo. Biz qachon qitilamiz bu illatdan? Uyida ko'rganini qilyotgan farzandlarimizga iddao qilishni qachon tugatamiz?



Ushbu maqolani yozishimdan maqsad shuki, har kim ana shu savollarga har kun, har lahza javob berib tursa...



Jo'raqul
NARZULLAYEV,
faxriy jurnalist,
Paxtachi tumani.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

*Oxodalik, obodlikka
nafaqat davlat, balki
uyingiz, ish joyingiz
atrofini tozalagan
holda Siz ham
mas'ul ekanligingizni
bilasizmi?*

Xorijiy tilni qanday maqsadda o'rganyapsiz?

Bugun qayerga qaramang, chet tilini o'qitish markazlari reklamasiga ko'zingiz tushadi. "Qisqa vaqtida xorijiy tilni o'rgatamiz", "Bir oyda ingliz tilida gapirishni istaysizmi?", "Biz bilan sertifikat olish oson"...

Reklama mazmuni talabdan kelib chiqadi. Demak, biz xorijiy tillarni faqat hujjat uchun o'rganayotgan ekanmiz-da?!

Ayni fikrimga aniqlik kiritish uchun kichik ijtimoiy so'rov o'tkazdim. Unda 50 nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi. Ular yagona savolga javob berishdi: "Xorijiy tilni qanday maqsadda o'rganyapsiz?".

Natijalar tahlil qilindanda, so'rovda ishtirok etgan yoshlarning 50 foizi chet tilini oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun o'rganayotganligini aytdi. 30 foizi xorijga ketish yoki ishga joylashish uchun, 20 foizi esa shunchaki qiziqish tufayli kurslarga qatnashayotgan ekan.

Farqi nima, asosiy bilim olinaypti-ku, deyishingiz mumkin. Albatta, bilim olishning zarari yo'q. Chet tilini o'rganish esa insonning dunyoqarashini kengaytiradi, ko'proq odamlar bilan muloqot qilish, ish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Biroq ma'lum bir sinovdan o'tish uchun til o'rgan-

sak va keyinchalik rivojlantir-masak, olingan bilimlar havoga uchmaydimi? Bunga isbot kerak emas. Ishonmasangiz, maktab davrini eslang, barchamiz biror xorijiy tilni o'rganganmiz, ammo qaysi birimiz bemalol gaplasha olyapmiz? Maqsad yo'qligining oqibati emasmi bu?

Chet tilini tez o'rganishga intilish kishida asabiylilik, xavotir yoki o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, bu harakatlarning hech biri bepul bo'lmaydi, kursga qatnashish, darsliklar olish, imtihon topshirish ham yaxshigina moliyaviy xarajatni talab qiladi. Ya'ni, oila iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Bu bilan xorijiy tilni o'rganish shart emas, demoqchi emasman. Aksincha, til bilish millatni ham, davlatni ham boy qiladi. Aytmoqchi bo'lganim, tilni o'rganish maqsadini to'g'ri tanlashimiz, undan to'g'ri foydalanishni o'ylashimiz kerak.

Umida SATTOROVA,
talaba.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 198 nusxada chop etildi. Buyurtma 80. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda